ALISHER NAVOIYNING "FARHOD VA SHIRIN" HAMDA "LAYLI VA MAJNUN" DOSTONLARIDAGI O'XSHASH VA FARQLI JIHATLAR

To‘raqulova Odinaxon

Farg‘ona davlat universitetiFilologiya fakulteti

o‘zbek tili yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiy "Xamsa"sidagi "Farhod va Shirin" hamda "Layli va Majnun" dostonlari qiyosiy o'rganiladi. Ikki asar muhabbat mavzusi, qahramonlar fojiasi va tasavvufiy ma'no jihatidan yaqin bo'lsa-da, voqealar muhiti, qahramonlar faoliyati va badiiy yo'nalishi bilan farqlanadi. Maqolada bu o'xshashlik va farqlar matn asosida sodda tahlil qilinadi va xulosalar jadval ko'rinishida umumlashtiriladi.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, Xamsa, Farhod va Shirin, Layli va Majnun, ishq, qiyosiy tahlil, tasavvuf.

Kirish.

Sharq adabiyotida "Xamsa" yozish, ya'ni besh dostondan iborat to'plam yaratish, shoirning mahorat imtihoni hisoblangan. Bu an'ana Nizomiy Ganjaviy "Panj ganj"idan boshlanib, Amir Xusrav Dehlaviy tomonidan davom ettirilgan va Navoiy davriga kelib katta badiiy maktabga aylangan edi. Navoiy bu an'anaga qo'shilib, 1483–1485-yillarda besh dostondan iborat "Xamsa"ni turkiy tilda yaratdi: "Hayrat ul-abror", "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Sab'ai sayyor" va "Saddi Iskandariy".[1]Bu ish shunchaki taqlid emas edi: turkiy til ham fors tili kabi yirik doston yaratishga qodirligini amalda ko'rsatish edi.

Xamsadagi ikkinchi va uchinchi dostonlar, ya'ni "Farhod va Shirin" hamda "Layli va Majnun", mavzu jihatidan bir qatorda turadi: ikkalasi ham ishq dostonlari. Shu sababli ular ko'pincha bir-biriga yaqin asarlar sifatida tilga olinadi. Ammo yaqinroq qarasak, savol tug'iladi: ishq har ikkala dostonda aynan bir xil tasvirlanganmi? Farhod ishq yo'lida tog' kesadi, mehnat qiladi, to'siqlarga ochiq kurash bilan javob beradi. Majnun esa kurashdan

ko'ra dard chekadi, cho'lga ketadi, ishqini she'r bilan aytadi. Demak, ikki asar bir mavzuni turli tomondan yoritadi, va bu farq shunchaki syujet farqi emas, balki Navoiyning ishq haqidagi qarashi qanday ko'p qirrali ekanini ham ko'rsatadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

"Farhod va Shirin" va "Layli va Majnun" dostonlarining yaratilish tarixi, syujet tuzilishi, obrazlar tizimi hamda g'oyaviy yo'nalishini bir-biriga qiyoslagan holda o'rganishda qo'llanildi. Bu usul ikki asar orasidagi geneologik va tipologik yaqinliklar hamda o'ziga xos farqlarni ochib berish imkonini berdi.Alisher Navoiy asarlarining asl matniga tayanib, baytlardagi yashirin ma'nolarni, tasavvufiy ramzlarni (masalan, ishqi majoziydan ishqi haqiqiyga o'tish bosqichlarini) to'g'ri talqin qilish va sharhlashda foydalanildi.

"Layli va Majnun" qissasi arab og'zaki va yozma manbalarida shakllangan. Turdiyevaning tadqiqotida bu qissaning dastlabki manbalari, xususan Abulfaraj Isfahoniyning "Kitob ul-agoniy" [2] asarida Qays ibn Mulavvah — Majnun haqidagi ma'lumotlar va uning she'rlari o'rganilgan; shu bilan birga, dastlabki manbalarda Layli obraziga e'tibor sust bo'lgani ham qayd etiladi. Bu fikr muhim: Navoiy dostonida Laylining sabri va sadoqati ko'rsatilishi muallifning bu obrazga alohida e'tibor berganini anglatadi. Keyinchalik Nizomiy bu rivoyatni yirik dostonga aylantirgan, Dehlaviy, Jomiy va boshqa shoirlar uni davom ettirgan. "Farhod va Shirin" syujeti esa Nizomiyning "Xusrav va Shirin" dostoni va Dehlaviyning shu mavzudagi asari orqali Navoiygacha yetib kelgan; bu dostonlarda markaziy qahramon Xusrav bo'lsa, Navoiy diqqatni Farhodga ko'chirgan, degan qarash adabiyotshunoslikda keng tarqalgan.

Natija va muhokama

Ikki dostonning umumiy asoslari. Navoiy har bir dostonni an'anaviy kirish boblari, ya'ni Allohga hamd, payg'ambarga na't va hukmdorga madh bilan boshlaydi, so'ng asosiy syujetga o'tadi.[3] Ikkala dostonda ham ishq oddiy xursandchilik emas, balki sinov va azob yo'li sifatida ko'rsatiladi.

O'xshash jihatlar. Avvalo, har ikki dostonning asosiy g'oyasi majoziy ishq orqali Ilohiy ishqqa yetishishdir. So'ngra har ikki asarda sevishganlar to'siqqa duch keladi: Majnun va Layli o'rtasida qabila va oila qarshiligi, Farhod va Shirin o'rtasida esa hukmdor raqibning iroda va hiylasi turadi bu hiyla esa asar yakuni fojeaviy yakunlanishiga ilk turtki bo'ladi. Har ikkala qahramon ham o'z ishqiga sodiq qoladi va undan voz kechmaydi. Har ikki dostonda ham yakun fojiaviy: Majnun Laylidan ajralib jon beradi, Farhod esa yolg'on xabar ta'sirida hayotdan ketadi.Ikkala asarda ishq insonni dunyoviy manfaatdan yuqori qo'yadigan kuch sifatida talqin qilinadi, bu esa tasavvufiy mazmunga yaqinlashadi.[4] Dostonlardagi ikkala qahramon ham jamiyatning markazidan chetga chiqadi: Majnun cho'lga, Farhod esa tog'ga boradi. Bu o'rinlar shunchaki manzara emas, balki ishq sinovi o'tadigan ramziy maydondir. Nihoyat, ikkala dostonda ham ayriliq (hijron) asosiy ruhiy holat bo'lib, qahramonlar uchun visolga yetish emas, ishqqa sodiq qolish muhimroq ko'rinadi.

Farqli jihatlar. Birinchi va eng yaqqol farq voqealar muhitidir. "Layli va Majnun"da voqealar arab qabilalari hayoti, maktab, cho'l va ayriliq atrofida kechadi; "u va Shirin"da esa saroy, shahzoda va malika, hukmdorlar o'rtasidagi munosabat markazda turadi. Ikkinchi farq qahramonning faoliyatida. Farhod ishq yo'lida tog'ni kesib, suv yo'li ochishdek mashaqqatli mehnatga kirishadi; bu uni amaliy harakat qahramoniga aylantiradi. Majnun esa asosan ichki kechinma va she'riy faryod qahramonidir: u cho'lda kezadi, dardini she'r bilan aytadi. Uchinchi farq asarning ohangida: "Farhod va Shirin" ko'proq jangovar-qahramonlik va voqeaga boy, "Layli va Majnun" esa lirik va ruhiy tahlilga boyroq. To'rtinchi farq navoiy talqinida Farhodning markaziy qahramon sifatida ko'rsatilishida; doston nomi ham, voqea tarkibi ham uning atrofida jamlanadi. Layli va Majnunda esa ikki obraz bir-biriga teng muvozanatda ishq azobini tortadi.Beshinchi farq,"Layli va Majnun" dostonidagi Cho'pon obrazi ikki sevishgan qalbni korishishiga imkoniyat yaratib beradi. "Farhod va Shirin" dostonda esa Shopur ismli Farhodnining do'sti bir-biridan uzoqda bo'lgan ikki oshiq o'rtasida vositachi vazifasini bajarib,Farhod va Shirin yozgan sirli maktublarni bir-biriga yetkazadi. Oltinchi farq, fojianing sababi ham farqlanadi. "Farhod va Shirin"da aybdor va raqib aniq, ya'ni hukmdorning hiylasi

qahramonni halokatga olib keladi; "Layli va Majnun"da esa asosiy to'siq muayyan bir shaxs emas, balki qabila odatlari va jamiyat me'yorlaridir. Shuning uchun birinchi doston ko'proq kurash, ikkinchisi esa ko'proq qaror topgan tartib bilan ishq o'rtasidagi ziddiyat sifatida o'qiladi. Yettinchi farq, qahramonlar sinovi turlicha: Farhodga aniq vazifa beriladi va u bu vazifani bajarishga intiladi, Majnun uchun esa bunday vazifa yo'q; uning sinovi uzoq davom etadigan ayriliq va ichki iztirobning o'zidir. Bu o'xshashlikda ham, farqda ham Navoiy ishqni bitta qolipga solmaganini ko'rsatadi.

Tasavvufiy talqin. Tasavvuf nuqtai nazaridan ikkala doston ham majoziy ishqdan haqiqiy ishqqa o'tish g'oyasini ifodalaydi. Farhodning mashaqqati va Majnunning jununi fano yo'lidagi bosqichlar sifatida o'qilishi mumkin, ya'ni solikning o'z "men"idan kechishi.[6]Farqi shundaki, Farhodda bu yo'l harakat va sinovda, Majnunda esa ichki dard va o'zni unutishda ko'rinadi.Ikkala doston "Xamsa"ning umumiy ma'naviy yo'nalishi bilan ham bog'lanadi. Birinchi doston "Hayrat ul-abror" axloqiy-ta'limiy mazmunda bo'lgani uchun, keyingi syujetli dostonlar o'quvchiga ko'pincha shu g'oyalarning hayotiy misoli sifatida ko'rinadi. Shu ma'noda Farhod va Majnun yo'llari tasavvufdagi bir maqsadga, ya'ni ishq orqali poklanishga, turli yo'llar bilan borishni ko'rsatadi: biri harakat va mashaqqat orqali, ikkinchisi dard va o'zlikni unutish orqali.

Xulosa.

Navoiyning "Farhod va Shirin" hamda "Layli va Majnun" dostonlari bir muallif, bir til va bir to'plamga tegishli bo'lgani sababli umumiy asosga ega, ammo ular ishqni bir xil tasvirlamaydi.Tasavvufiy nuqtai nazardan ikkala doston ham majoziy ishqdan haqiqiy ishqqa o'tish va o'zlikdan kechish g'oyasiga yaqin, lekin bu g'oyaga turli yo'llar bilan boradi: Farhod mujohada, ya'ni mashaqqat va chiniqish orqali, Majnun jazba, ya'ni ishq kuchi ta'siridagi dard orqali. Shu ma'noda ikki doston bir-birini to'ldiradi va ishq yo'lining ikki ko'rinishini ochadi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Navoiy A. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. 8-jild: Farhod va Shirin; 9-jild: Layli va Majnun. Toshkent: Fan, 1987–2003.

2.Abu al-Faraj al-Isfahani. Kitab al-Aghani (Kitob ul-agoniy). Tahqiq: Ihsan Abbas, Ibrahim al-Saafin, Bakr Abbas. 25 jildlik. Bayrut (Beyrut): Dar Sadir, 2008 (3-nashr).

3.Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. Toshkent: Yozuvchi, 1996.

4. Schimmel A. Mystical Dimensions of Islam. Chapel Hill: University of North Carolina Press, 1975.

5.Nicholson R. A. The Mystics of Islam. London: G. Bell and Sons, 1914.

6.Turdiyeva M. "Layli va Majnun" qissasi aks etgan dastlabki manbalar // O'zbekistonda xorijiy tillar, 2024, 10-jild, 1-son (54).